



**ABOUT THE TRANSLATION OF "DARLING" BY THE GREAT FRENCH
WRITER GI DE MOPASSAN**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10118944>

Anarboyeva Iroda Oripovna
ADCHTI, senior teacher.

**BUYUK FRANSUZ YOZUVCHISI GI DE MOPASSANNING "AZIZIM" ASARI
TARJIMASI XUSUSIDA**

Anarboyeva Iroda Oripovna
ADCHTI, katta o'qituvchisi.

Ma'lumki, fransuz va o'zbek tillari turli til tizimiga mansub. Shunday ekan, fransuz tilidan o'zbek tiliga tarjimada gap qurilishi, frazeologizmlar, turg'un iboralar, so'z birikmalari, so'zlarning ko'p ma'noliligi muammolar tug'dirishi tabiiydir.

Tarjimada shunday narsalar borki, ularni o'zgartirilsa, biron bir millatga xos joy, kolorit ma'nosini o'zgartiradi. Bu muammoga esa atamalar sabab bo'ladi. Agar atamalar tarjima qilinsa, ahir bu milliy lashtirish bo'ladiku! Qanday qilib fransuz millati va diyoriga mansub narsani o'zbeklashtirib bo'ladi, buni qanday xal etish mumkin? [1.5-6]

Darhaqiqat, "Azizim" asari quyidagi jumlalar bilan boshlanadi : - Quand la caissiere lui eut rendu la monnaie de sa piece de cent sous, Georges Duroy sortit du restaurant. Comme il portait beau, par nature et par pose d'ancien sous - officier, il cambra sa taille, frisa sa moustache d' une geste militaire et familier, et jeta sur les dineurs attardes un regard rapide et circulaire, un des ces regards de joli garcon, qui s'etendent comme des coups d'epervier. [4.269]

- Jorj Dyurua 5 frankdan qolgan qaytimni kassir ayoldan oldida tashqariga yo'naldi.

Unter - ofitser bo'lib yurgan chog'laridek qaddini g'oz tutgan g'oyatda xushqomat bu odam u yoq bu yog'ini tuzatgan bo'ldi, odati bo'yicha mo'ylovlarnini azamatlarcha burab qo'ydida, zalda orqayinroq o'tiirib qolgan xo'randalarga bir chimirilib qaradi, uning qarashlari o'lja poylagan qirg'yniki kabi o'tkir, ko'r kam, qaddi qomatiga mos edi. [5.218]

Ushbu misolda tarjimon asl nusxadagi fikrni aniq ravshan yoritilishiga erishgan. Buning uchun tarjimon tasviriyl ifoda vositalaridan. Xususan, o'xshatishdan samarali foydalangan.



Zero, to'g'ri qilingan tarjima asar moxiyatini to'la anglab yetish, uning ta'sirchanligini oshirish, eng muhimi kitobxonga go'zal va maftunkor ma'naviy ozuqa berish xam demakdir. [2.41]

- On n'avait jamais trouve les Coupables, qu'on n'avait guere Cherches d'ailleurs, l'Arabe etant Un peu considere comme la proie Du soldat. (Guy de Maupassant.Bel-Ami. p.271).

- O'shanda bu ishning aybdolari topilmadi, - ularni jon kuydirib qidirganlari xam yo'q - axir arab deganingiz ham qayog'ini o'girib qaramang, soldatning qonuniy o'ljasiday bir narsada. (Gi de Mopassan, 221 bet)

Ushbu misolimizda "arab" so'zi soldatning o'ljasni sifatida namoyon bo'lib, tirik inson o'lja darajasiga keltirilgan, shu bilan insonning ijtimoiy qadri yerga urilgan, kamsitilgan, uning zamirida esa o'xshatish mazmuni yotadi. Bu o'rinda fransuz tilida "comme", o'zbek tilida "-day" ifoda vositasi sifatida tanlangan. "comme" va "- day" munosabati qiyoslangan tillarda keng kuzatiladi.

Stilistik qiyosning muqobil birligi fransuz tili bilan o'zbek tili mazmun tematikasining bir xilligini ta'minlasada, lekin ularinng monand shakllari tarjima jarayoniga jalb etilgan tillar ichki me'yorining tizimli va funksional qirralari bilan uzviy bog'lanadi. Milliy til me' yori uning tarixiy ijtimoiy, madaniy ildizlari bilan tutash bo'lgani boisi uning ruhiyat oynasi sanaladi [3.61].

Shu bois ham muqobillar har bir til realemlari mazmun mohiyati talablariga ko'ra ajratiladi.

-Et elle prononca d'une voix Joyeuse: "La suite a demain!" Puis, se relevant : « c'est comme ca. Qu'on ecrit un article, mon cher Monsieur. Signez,s.v.p" Il hesitait. "Mais singez donc!" Alors il se mit a rire et ecrivit Au bas de la page : «Georges Duroy» [4.272]

-Odamlarning hammasi g'irt axmoq va omi, hech birining to'nkadan farqi yo'q.

Dyurua ikkilanib qoldi. Tagiga "Jorj Dyurua" deb imzo chekdi [5.257]

Yuqoridagi misolda "Signer" fe'lining dastlabki ko'rinishi nominativ asos vazifasini bajardi. Ushbu fe'lning leksik takror sifatidagi ikkinchi ko'rinishi oldingi jumla bilan keyingi jumlani o'zaro bog'lagan xolda yaxlitlashgan axborot majmuasining shakllanishida sematik bog'lovchi sifatida ishtirok etadi. Qayta nomlovchi "Muayyan xarakatga qat'iy undash" modallik ma'nosi qo'shimcha ma'no ko'rsatkichi sifatida yorqin ifodaga ega. Bu haqda yaxlit murakkab jumla tarkibidagi "Hesiter" fe'li ma'nosi ham yaqqol dalolat berib turibdi. O'zbek tili variantida esa variativ o'xshashlik o'z aksini topgan. Matn tarkibidagi jumlalarni bir biriga mazmunan bog'lashda variativ o'xshashlik xodiasini vujudga keltiruvchi leksik sinonimlar alovida ajralib turadi [6.15].



Semantik bog'lanish turlari axborot oqimi izchil xarakati yo'nalishida nafaqat ikki nominativ birlik ma'lumotlarini o'zaro bog'lashga xizmat qiladi, balki shu bilan bir qatorda shu birliklar bilan bog'langan axborotlarning kichik tizimlarini tartibli ravishda bir biriga bog'lashda, yaxlitlashtirishda ishtirok etadi. Bir qator o'rnlarda "comme", go'yo, - dek, ifoda vositasiga mos keladi. Bu xolat ham mantiqiy, xam obrazli o'shxatish darajasida ko'zga tashlanadi. Tarjima jarayonida yuzaga keladigan jumboqlar yechimi tarjimaning umumiy nazariy modelini nazoratdan o'tkazish, unga zaruriy qo'shimchalar kiritish imkonini tug'diradi.

- Une chaleur pareille a une flame lui brula bientot l'estomac, se repondait dans ses membres, reffer. Mais son ame en l'etourdissant [4.112]

- shu zahoti ichiga olov yugurganday bo'lib ketdi, tomirlariga alanga o'tdi, jismi qizishdi va o'zini ancha tetik sezsa boshladi [5.154]

Bu o'rinda fransuz tili bilan o'zbek tili o'rtasidagi o'zaro xoslashuv qirralaridagi monandlashuv jarayoni darajasi tadqiqi alohida e'tiborga molik. Zero, turli tillar o'rtasidagi muqobililik munosabatlarini aniqlash, ularni me'yoriy qirralarini ochib berish tarjima muqobili mohiyatini mufassal ochib berishga ko'mak beradi.

Tillararo o'zaro xoslashuv shakllarini aniqlashda stilistik troplar va figuralar o'rni alohida ahamiyatga molikdir.

Stilistik qiyosning muqobil birligi fransuz tili bilan o'zbek tili semantikasining bir xilligini ta'minlasada, lekin ularning monand shakllari tarjima jarayoniga jalb etilgan tillar ichki me'yorining tizimil va funksional qirralari bilan uzviy bog'lanadi.

Milliy til me'yori uning tarixiy, ijtimoiy, madaniy ildizlari bilan tutash bo'lgani bois uning ruhiyat oynasi sanaladi.

Stilistik qiyos shakllari mazmuni milliy til vakillari turmush tarzi, milliy udumlari, osori atiqlari mazmuni, ma'naviy ma'rifiy qarashlari maxsuli hisoblanadi.

Demak, asliyatdan tarjima tiliga o'girish jarayoni zamirida, murakkab, ayni chog'da mas'uliyatli vazifa yotadi. Tarjima vazifasiga asl tilda berilayotgan fikrlar mazmunining nafaqat aniq bayoni, shuningdek, tarjima tili vositasida bayon uslubi va shakllarining barcha alomatlarini qayta shakllantirish kiradi [2.45].

Original til matnining mazmunini to'g'ri anglab yetish aniq tarjimani kafolatlovchi asoslardan biridir. Ko'rdikki, badiy asar tilini mukammal, ta'sirchan qilish turli obraz va voqeа hodisalar ifodasidagi serjilolik va o'ziga xos bo'yoqdorlikni oshirishda tasviriy vositalarning ahamiyati ham beqiyosdir.



ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. M.E.Umarxo'jaev. Umumiy tilshunoslik. Andijon 2007 yil 41 bet.
2. N.Komilov. Bu qadimiy san'at. Toshkent 1991. 61 – bet.
3. Maupassant. Contes et nouvelles. 1884 – 90 Bel-ami roman. Editions Robert Lafontt S.A.Paris. 1988 pp 269-507
4. Gi de Mopassan. Xayot. Azizim. Novellalar. Toshkent 1987 yil. Adabiyot va san'at nashriyoti. Jaxon adabiyoti durdonalari.218-540 b. Ibroxim G'ofurov tarjimasi.
5. В.Н.Комиссаров. Слова о переводе.М.1973. стр.15